

Hekuc - 2021




YCTA3JAP KYHNI
MYFARINM XEM

N 5
nivunh-melodikasaulk's kijifitut

Y3ANKCNS
ENGNINMEHGNPNQ
XEM
MYEAGAAM





2021-жыл ушын

**«Мугаллим хәм үзликисиз билемендириүү»
журналына жаззылтыу баҳасы төмөнделгеше:**

Индекс: 2092
**Жеке пүхчарга ушын бир жылта 90 000 сүм,
айты айға - 45000 сүм**

Индекс: 2093
**Көрханалар ушын бир жылға 100 000 сүм,
айты айға - 50 000 сүм**
**КК филиал УзНИИПИ
р/с 20210000800538464001
КК.Отд. «ИПОТЕКА БАНК» г. Нұкус
МФО 00621
ИИН: 200362233**



МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛДІМЛЕНДІРИҮЙ



ISSN 2181-7138

№ 5 2021 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:
A. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:
Максат АЙЫМБЕТОВ
Нагмет АЙЫМБЕТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Дишиподхұжа АЙТБАЕВ
Гұлбахар АБЫЛОВА
Өсербай ӘЛДЕҮОВ
Аскар ДЖУМАШЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Батырбек КАЙТЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Сарсен КАЗАХБАЕВ
Гулмира КАРЛЫБАЕВА
Сабит НҰРЖАНОВ
Уролбай МИРСАНОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Зухра СЕЙТОВА
Айдан СУЛТАНОВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Ризамат ШОДИЕВ
Ойбахор ШАМИЕВА
Бекзод ХОДЖАЕВ
Дүстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсөр ЭРГАШЕВА

Шөлкемлестириүшілер:
*Қарақалпақстан Республикасы
Халық ғылыми-мәдениеттік
Министрлігі, ӨЗПИИИ
Қарақалпақстан филиалы*

Өзбекстан Республикасы
Министрлер Қабинеті
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қарары менен
дизимге альынды

Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм
хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
альынды №01-044-санлы гүйділдік
берилген.
Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакоз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналга келген мақалалларға жууап қайтарылмайды, журналда жөргилянган мақалалардан алынған үзингилер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билімлендіриў» журналынан альынды, деп корсетилийи шарт. Журналға 5-6 бет көлеміндеги материалдар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтінде электрон версиясы менен биргө қабыл етіледи. Мақалада көлтирилген мәглұмматтарға автор жууапкер.

МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ

| | |
|---|----|
| Mambetov Q. Lirikalıq poema | 4 |
| Johmbetova Sh. G. Dáwletovanný poeziyasının leksikalıq-cemantikalıq ózgesheliklerileri | 10 |
| Тошпұлатова Д. Улугбек ҳамдам насида мұаллиф дүнәқараши ифодасининг поэтик талқини | 15 |
| Абдуллаев А.А. “Бобурнома”да тошкент вилояти топонимлари ҳақидаги маылумотлар | 18 |
| Seytova D.U., Jumabayeva A.B. Tleybayeva G.M. The basic ways of forming words in english language | 22 |
| Sarsenbaeva Z. Factors in improving linguocultural competence | 26 |

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

| | |
|--|----|
| Ярматов Р.Б., Ахмедова М.Х. Замонавий педагогик технологиялар асосида дарслар самарадорлыгини ошириш | 30 |
| Кодирова Ф.У. Тылым кластери шароитта инклозив тылым самарадорлыгини ошириш | 36 |
| Ботиррова Ш.И. Педагогик тылым инновацион кластери тылымда ижтимойи шериклик тамойили | 40 |
| Mirzaraixmonova Sh. M. Talabalar kasbiy shakllanishida shaxs yo'nalganlik motivlariini ahamiyati | 43 |
| Safo Matjon Ta'lim bosqichlarida kitobxonlik va mutolaa madaniyatini shakllantirish | 45 |
| Токибоева Г.Р., Бекирова Э. Общие педагогические компетенции учителя начальных классов | 49 |
| Матиазарова К.О. Таалabalарининг касбий-амалий күнінмеларини шакллантириш жараёнлари | 54 |
| Байжанов Т.Ж. Педагогические системы компетентного подхода преподавания туркменского языка в Каракалпакстане | 60 |
| Бабашев Ф.А. Медиаобразование – неотъемлемая часть непрерывного образования | 63 |
| Турьмбетова З.Ю. Тенденции развития высшего образования | 68 |
| Уразбаев Н.У. Развитие ответственности и инициативы будущего учителя в условиях обучения в ВУЗе | 72 |
| Турьмбетова З.Ю. Сравнительная характеристика систем образования США, Германии и Японии | 75 |
| Дошиязов Ж.К. Принципы и формы традиционной культуры каракалпаков в контексте трудового воспитания | 79 |

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХИЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИХ, ФИЛОСОФИЯ

| | |
|---|----|
| Kosbergenov B. Demokratiya hám qádriyat | 84 |
| Nizomov A., Mahmudova Ch.I. Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'atit turk” asari haqida | 87 |
| Ахмаджонов Д.Б. Бағрикенглиқ сиёсати ва ахборот хуружи | 92 |

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

| | |
|--|-----|
| Asqarov M.A., Gubenova T. Matematikani oqitiwda informaciyalıq texnologiyalarınıň elementleri | 96 |
| Қасымов С. Математика сабағын машқалалы оқытыўда кейіс методынан анық интеграллар есабын шешійте колланыў методикасы | 100 |
| Bisenbaev I.Q. Tálimge xabar texnologiyalarín engiziwdiň áhmiyeti hám nátiyjeleri | 104 |
| Rashidov S.G'. Uzlukszí spektrda sanoqlı xos qýymatlari bo'lgan massali Dirak operatorini qurish | 108 |
| Исерилова Л.С. Умумий ўрта таълим мактаби ўқувчиларининг "Информатика ва ахборот технологиялари" фанидан компетенцияларни шакллантириш муаммолари | 117 |
| Султанов Т.М. Башлангич математика курси назарияси фанини ўқитишида ал-хоразмий ижодидан фойдаланиш | 121 |
| Toxirov F.J. Oliy ta'lim muassasaları talabalarining dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirish muammolari | 124 |
| Орынбетов Н., Султанбаев Қ. Умумкасбий файлар бўйича электрон таълим ресурслари базасини яратиш ва уларнинг масофадан фойдаланиш методикаси | 127 |
| Orinbetov N. Umumkasbiy fanlarni o'qitishda talabalarning mustaqil fikrlashlarini shakllantirish | 132 |
| Сапарова А.А. Исторические и теоретические аспекты проблемы изучения интеграла в общеобразовательной школе | 138 |

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

| | |
|--|-----|
| Karimova A.M., Xakimova M.O'. Maktabgacha yoshdagı bolalarnı atrof-olam bilan tanishtırışda didaktik o'yinlardan foydalanish | 141 |
| Ғанибаева Б. Ш., Мамбеталиев Қ. А. Бастауышсынып өзбек және қазақ тіліндегі ана тілі оқулықтарының салыстырмалы сипаты | 143 |
| G'ulomova X. Boshlang'ich sinif o'qish darslarida asar tahlili vositasida o'quvchilarning kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish | 148 |
| Жабборова О.М. "Башлангич таълимда "тарбия" фанини ўқитиши методикаси" ўкув фанининг асослари | 152 |

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӨМ СПОРТ

| | |
|---|-----|
| Abdulaxatov A.R. Kurashchilar musobaqa faoliyatida hujum, himoya, qarshi hujum va ogohlantirishlar | 156 |
|---|-----|

TALABALAR KASBIY SHAKLLANISHIDA SHAXS YO'NALGANLIK MOTIVLARINI AHAMIYATI

Mirzraxmonova Sh. M.

Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti

Tayanch so'zlar: talaba, shaxs yo'nalganlik, motiv, kasbiy kamolot, korrelyatsiya koefitsienti.

Ключевые слова: студент, личностная направленность, мотив, профессиональная зрелость, коэффициент корреляции.

Key words: student, personality orientation, motive, professional maturity, correlation coefficient.

Talabalarning kasbiy shakllanishi bilan ular shaxsining yo'nalganligi o'rtaida ma'lum bog'lanishlar mayjud bo'lib, bu aloqani o'rganish orqali talabalgarda o'zlariga mos kasb tanlashlari uchun kerakli kasbiy maslahat berish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Shu o'rinda biz qisqacha shaxsning yo'nalganligi masalasini yoritishga harakat qilamiz. Shaxsning yo'nalganligi deganda uning shunday psixik xususiyati tushuniladiki, bu xususiyat shaxsning ehtiyojlarini, motivlarini, dunyoqarashimi, ustakovkalarini, hayotdagi va faoliyatidagi maqsadlarini o'zida mujassamlashtiradi. Biz quyida yo'nalganlikni o'zida aks ettirgan harbir komponentga alohida – alohida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Shunday qilib, ulardan birinchisi shaxsning ehtiyojlari hisoblanadi. Shaxsning ehtiyojlari – bu uning tomonidan his qilinadigan nimagadir bo'lgan zarurati. Shaxsning motivlari – bu ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan shunday ichkikuchlarki, bu kuchlar uni ma'lum faoliyatga undaydi.

Shaxsning dunyoqarashi – bu tabiatga, jamiyatga va insoniy munosabatlarga nisbatan shakllangan ilmiy qarashlar, ishonchlar tizimi bo'lib, ular shaxsning ichki holati hisoblanadi va uning ongida ma'lum hayotiy qiziqishlar va maqsadlar, munosabatlar, pozitsiyalar ko'rinishida aksetadi. Shaxsning ustakovkaları - bu u yoki bu faoliyatni amalga oshirishga nisbatan yoki shaxsiy faollikni tormozlashga nisbatan bo'lgan ichki kayfiyatidir. Ustanovkalar muhim funksional ahamiyatga ega bo'lib, ular shaxsning ma'lum faoliyatni samarali bajarish imkoniyatini beradigan tayyorgarlik holati ko'rinishida bo'ladi. Ularning asosiy funksiyalari ikki xil: 1) faoliyatning amalga oshirilishidagi turg'un holatni ta'minlaydi; 2) standart vaziyatlarda faoliyatning kechishini ixtiyoriy nazorat qilishdan va qaror qabul qilish zaruriyatidan shaxsni ozod qiladi[6].

Maqsadlar – bu shaxs uchun nisbatan ahamiyatli bo'lgan predmetlar, hodisalar, vazifalar va ob'ektlar hisoblanib, ularga yetishish shaxs hayotining va faoliyatining mohiyatini tashkil etadi. Maqsadlar shaxsning ehtiyojlarini amalga oshiradi va faoliyat so'nggi natijasining obrazi sifatida ishtirok etadi.

Yuqoridaq tahlildan ko'rrib turibdiki, shaxsning yo'nalganligi murakkab tuzilmaga ega bo'lgan jarayon hisoblanib, uni tadqiq qilishda olinadigan natijalarni shu murakkablik nuqtai nazardan turib tahlil qilish zarur bo'ladi. Biz o'z tadqiqotimizda «Shaxsning yo'nalganligi» savolnomasi, (V.Smekal va M.Kuchera tomonidan ishlab chiqilgan) dan foydalandik.

Metodika: V.Smekal va M.Kuchera tomonidan ishlab chiqilgan metodika ham talabalarning shaxsiy yo'nalganligini aniqlashga xizmat qiladi va kasbiy shakllanishda yo'l qo'yilayotgan nuqsonlarga va qaysi shaxs yo'nalganligini kamol toptirish maqsadga muvofiqligi masalasiga aniqlik kiritadi[1-5].

Biz talabalarning "Shaxsiy yo'nalganligi" metodikasi bo'yicha olingan natijalarni stenlar bo'yicha ko'rgazmali ifodasini keltirib o'tmoqchimiz.

Biz yuqorida metodikaga qisqacha tavsif berayotgan vaqtida, uning asosiy ko'rsatkichlari uchta faoliyat motivi yo'naliши bo'yicha tahlil etilishini qayd etib o'tganiди.

Tadqiqot natijalari

Shaxsning yo'nalganlik masalasiga N.D.Levitov o'ziga xos yondashib, u inson xarakterini shaxsning yo'nalganligini, ya'nii qiziqishlari, motivlari, intilishlari va irodaviy xususiyatlari mujassamlashgan psixik tuzilma sifatida talqin qiladi. Bu esa uning xarakterida birqator xususiyatlar shakllanishi va ular shaxsning o'zi, atrof-muhit, jonli va jonsiz predmetlarga nisbatan munosabatiga yo'nalishini ifoda etadi. Biz ham ushbu nazariy ma'lumotlarga asoslangan holda shaxs yo'nalganligini tahlil etishga harakat qilamiz[1-5].

Demak, shaxs faoliyatini harakatlantiruvchi kuchlar - ehtiyojlar, motivlar va qiziqishdan iborat. Ularning kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, shaxsiy va kasbiy shakllanishdagi ahamiyatini aniqlab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabaning kasbiy shakllanishi uning shaxsiy o'sishi bilan uyg'unlikda borishi tabiiy. Shuning uchun muammoni o'rganish jarayonida masalaming tahlil etishda har ikki jihatni ham o'zaro aloqadorlikda yoritib boramiz.

V.Smekal va M.Kuchera tomonidan ishlab chiqilgan metodika ham talabalarning shaxsiy yo'nalganligini aniqlashga xizmat qiladi va kasbiy shakllanishda yo'l qo'yilayotgan nuqsonlarga va qaysi shaxs yo'nalganligini kamol toptirish maqsadga muvofiqligi masalasiga aniqlik kiritadi[1-2].

Biz talabalarning "Shaxsiy yo'nalganligi" metodikasi bo'yicha olingan natijalarni stenlar bo'yicha ko'rgazmali ifodasini keltirib o'tmoqchimiz.

Natijalarning stenlar bo'yicha ko'rgazmalik holati talabalardagi shaxs yo'nalishlari harbiring o'mi qanday darajada ekanligini so'z bilan izohlashsha ham hojat qoldirmaydi. Biz quyida natijalarning psixologik mohiyatini tahlil etishga o'tamiz.

Agar kasb tanlash va kasbiy rivojlanish jarayonlari o'zaro qiyoslanganda ular o'rtaсидаги bog'liqliklar notekisliklardan xoli bo'lganda edi, talabalarning «o'ziga», «insonlarga» va «faoliyatga» yo'nalganlik motivlari kasbiy rivojlanish va shaxsiy xislatlarni tarbiyalashda qiyinchiliklar tug'dirmas edi.

Mulohazalarimizni uzviy davomettirgan holda ushbu ko'rsatkichlar orasidagi korrelyatsiya koeffitsientlariga e'tiborimizni qaratamiz

1-jadval

Shaxs yo'nalganlik sohalari orasidagi korrelyatsiya koeffitsienti

| Motiv | O'ziga | Insonlarga | Faoliyatga |
|------------|----------|------------|------------|
| O'ziga | 1 | -0.537** | -0.559** |
| Insonlarga | -0.537** | 1 | -0.392** |
| Faoliyatga | -0.559** | -0.392** | 1 |

** P<0,01;

E'tibor berib qaralsa, talabalar shaxsiy yo'nalganlik ko'rsatkichlarining korrelyatsiya koeffitsientlarida murakkab manzara kuzatilmoqda. Sababi uchta motivlar bo'yicha ham shaxs ko'rsatkichlari bir-birini mazmunan boyitishi kerak. Natijalarning bir tomonidan bunday ko'rinish olishi kasbiy ta'lim jarayonida ularga tahsil beruvchi pedagoglar qanday xususiyatlarga o'z e'tiborlarini qaratishi kerakliklariga yo'nalish beradi. «O'ziga yo'nalganlik» har ikkala holda ham manfiy, ammo ishonchli ko'rsatkichga egaligi jadvaldan ko'rinish turibdi. Ular «insonlarga yo'nalganlik» bilan ($r=-0.537$ $p<0,01$) koeffitsientga, «faoliyatga» yo'nalganlik bilan esa ($r=-0.559$, $p<0,01$) koeffitsientlarga

ega bo'ldi. Bundan ko'rinaldiki, talabalarda o'ziga yo'nalganlikning o'sganligi ularning insonlarga va faoliyatga yo'nalganlik motivlarining pasayishiga sabab bo'lib qolayotgan ekan. Shu singari «insonlarga yo'nalganlik» ham «faoliyatga yo'nalganlik» bilan ham manfiy, biroq ishonchlikka erishgan koeffitsientga ega bo'ldi ($r=-0.392$, $p<0,01$).

Bu holatda talabalardagi insonlarga yo'nalganlik motivlarining ortishi ularda faoliyatga yo'nalganlikni pasayishiga olib kelar ekan. Bu esa talabalarning muloqotmandlikni o'sishiga, inson qadr-qimatini hurmatlash, xushchaqchaqlik, insonlarsiz dunyoning mazmunsiz bo'lishi, jamoada ishlashni yoqtirish, kasb doshlarini e'zozlash kasbi sifatlarni o'sishi muhimligini anglaganliklari dandalolat beradi. Aslida insoni fazilatlarni shakllantirish shaxsning kasbiy shakllanishining bir jabhasi sanaladi. Aslida insonlarga yo'nalganlik bilan faoliyatga yo'nalganlik motivlarini ta'minlash esa ta'lim-tarbiya jarayonida talabaning hamkasbiy, ham shaxsiy kamoloti uyg'unligini ta'minlashga olib kelgan bo'laredi.

Adabiyotlar:

1. Avlaev O. U. Talabalar kamolotida ijtimoiy intellektning gender farqlari. "Psixologiya" ilmiy jurnal. 2021. № 1, 34-41 betlar.
2. Avlaev O., Butaeva U. Shaxs kamolotining psixologik determinant. Xalq ta'limi lmiy-metodik jurnal. 2021. № 6, 87-92 betlar.
3. Butaeva U., Avlaev O., Abdumannotova N. Scientific and practical studies of psychological maturity of students./ Journal of critical reviews. JCR. 2020; 7(12): 3063-3070doi: 10.31838/jcr.07.12.463
4. Burkhanov A., Avlaev O., Abdujalilova Sh. Responsibility as a criterion for determining personal maturity/E3S Web of Conferences 2021.
5. Levitov N.D. Psixiologiyatruda. -M.: Uchpedidzdat, 1963.-340 s.
6. Makarenko N. V. idr. Osnovy professionalnogopsixofiziologicheskogootbora. -Kiev, 1987.- 246 s.
7. Markova A. K. Psixologiyaprofessionalizma. M., 1996.- 285 s
8. Mirzarakhmonova Sh. M. International Scientific And Current Research Conference "Advantages of a dual-based learning system in vocational education." 222-225 page. 05-04-2021 Doi - <https://doi.org/10.37547/iscrc-intconf05>

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada talabalar kasbiy shakllanishida shaxs yo'nalganlik motivlarini emperik o'rganish natijalarini ilmiy-amaliy talqini keltirib o'tilgan. Tazribada talabalar kasbiy yo'nalganlik motivlarini umumiy holatini o'rganishga erishilgan. Empirik natijalar o'zaro qiyosiy korrelatsion tahlil etilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье представлена научно-практическая интерпретация результатов эмпирического исследования личностно-ориентированных мотивов в профессиональном становлении студентов. В ходе эксперимента студенты смогли изучить общее состояние карьерных мотивов. Эмпирические результаты анализировали методом взаимной сравнительной корреляции.

SUMMARY

This article presents a scientific-practical interpretation of the results of the empirical study of personality-oriented motives in the professional formation of students. In the experiment, students were able to study the general state of career-oriented motives. Empirical results were analyzed by mutual comparative correlation.

TA'LIM BOSQICHLARIDA KITOBOXONLIK VA MUTOLAA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Safo Matjon

*Chirchiq davlat pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim nazariyasi"
kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori.*

Tayanch so'zlar: kitobxonlik, mutolaa madaniyati, ma'naviyat, badiyyadabiyot, o'qimishlilik, ma'naviy kamolot, ta'lim, davlatsiyosati, o'tmisj madaniyati, uzlusiz ta'lim, ta'lim bosqichlari.